

PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

NIGORA XIDIROVA BOXODIROVNA

Namangan davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi

Boshlang'ich ta'lim magistranti

e-mail: nraxmonaliyeva@gmail.com

*Ilmiy rahbar: **Dilafro'z Muminova Akbaraliyevna***

p.f.d.(DSc), prof.

E-mail: dilbarxon2008@mail.ru

Namangan davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu ishda PIRLS xalqaro baholash dasturining asosiy talablari asosida 4-sinf o'quvchilarida badiiy matn tahlili kompetensiyasini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda PIRLS mezonlariga mos o'qish savodxonligi ko'nikmalari, jumladan matnni tushunish, g'oyaviy-badiiy qatlamni anglash, qahramonlar xarakterini tahlil qilish va matn mazmunidan xulosa chiqarish jarayonlari o'rganiladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun badiiy matn ustida ishlashning samarali metodlari, topshiriq turlari va amaliy mashqlar taklif etilgan. Ish yakunida PIRLS talablari asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar o'quvchilarning badiiy matnni tahlil qilish kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantirishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *PIRLS, o'qish savodxonligi, badiiy matn, matn tahlili, boshlang'ich ta'lim, 4-sinf, kompetensiya, o'quvchi faoliyati, matn ustida ishlash metodikasi.*

ABSTRACT

This study explores the development of literary text analysis competence among 4th-grade students based on the core requirements of the PIRLS international assessment program. The research examines reading literacy skills aligned with PIRLS criteria, including understanding the text, identifying artistic and ideological layers, analyzing characters' traits, and drawing conclusions from the content. Additionally, effective methods, task types, and practical exercises for working with literary texts in primary grades are proposed. The study concludes that the methodological approaches developed in accordance with PIRLS requirements significantly enhance students' competence in analyzing literary texts.

Keywords: *PIRLS, reading literacy, literary text, text analysis, primary education, grade 4, competence, student activity, methodology of working with texts.*

АННОТАЦИЯ

В данной работе рассматривается вопрос развития компетенции анализа художественного текста у учащихся 4-го класса на основе основных требований международной оценки PIRLS. В исследовании изучаются навыки читательской грамотности, соответствующие критериям PIRLS, включая понимание текста, осмысление идейно-художественного слоя, анализ характера героев и умение делать выводы по содержанию. Также предложены эффективные методы работы с художественным текстом, типы заданий и практические упражнения для начальных классов. В заключение обосновано, что методические подходы, разработанные в соответствии с требованиями PIRLS, значительно развивают у учащихся компетенцию анализа художественного текста.

Ключевые слова: *PIRLS, читательская грамотность, художественный текст, анализ текста, начальное образование, 4-й класс, компетенция, учебная деятельность, методика работы с текстом.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish davlat miqyosida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, PIRLS xalqaro baholash dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni tushunish, tahlil qilish va mazmunni qayta ishlash bo'yicha kompetensiyalarini baholashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu dastur mezonlari o'quvchilarning faqat matnni o'qish tezligiga emas, balki matn mazmunini chuqur anglash, badiiy qatlamni idrok etish, mantiqiy xulosa chiqarish va matndan ijodiy foydalanish ko'nikmalariga ham e'tibor qaratadi.

Boshlang'ich ta'limda badiiy matn ustida ishlash o'quvchilar tafakkurini rivojlantiradigan, ularning nutqiy faolligini oshiradigan, hayotiy kuzatuv va tasavvurlarini boyitadigan muhim pedagogik jarayon sanaladi. Ayniqsa, 4-sinfda badiiy matnni o'qish va tahlil qilish kelajakdagi mustaqil o'qish malakasining poydevorini yaratadi. Shu bois PIRLS talablari asosida badiiy matn ustida ishlash jarayonini metodik jihatdan takomillashtirish, o'quvchilarning tahliliy fikrlashini faollashtiruvchi topshiriqlarni joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda 4-sinf o'quvchilarining badiiy matn tahlili kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar, metodlar va amaliy mashqlar o'rganilgan. PIRLS mezonlari asosida ishlab chiqilgan badiiy matn ustida ishlash tizimi o'quvchilarda matnni tushunishning yuqori bosqichlarini g'oyani aniqlash, qahramon xarakterini talqin qilish, matndagi badiiy tasvir vositalarini anglash hamda matn bo'yicha mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

PIRLS dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni tushunish darajasini chuqur tahlil qiladigan xalqaro baholash tizimi bo'lib, uning talablari o'quvchi qanday tez o'qiydi degan savoldan ko'ra, matnni qanday tushunadi, qanday izohlaydi, qanday xulosa chiqaradi degan jihatlariga e'tiborni qaratadi. Shuning uchun 4-sinfda badiiy matn ustida ishlash jarayoni o'quvchining tafakkurini rivojlantirish, atrof-muhitni anglash, matndan ma'no chiqarish, hissiy va estetik idrokni boyitishga xizmat qilishi kerak.

O'quvchi PIRLS talablariga mos ravishda badiiy matnni nafaqat o'qiydi, balki matnning ichiga kirib boradi, qahramonlarning hislarini tasavvur qiladi, ularning harakatlari ortidagi sabablarni anglaydi, voqealarni bir-biri bilan bog'laydi va matndan hayotiy xulosa chiqaradi. Bu esa oddiy o'qish emas, balki badiiy matn bilan tirik muloqot qilish jarayonidir.

Badiiy matn tahlili PIRLS mezonlariga ko'ra o'quvchidan matnni sathma-sath anglashni talab qiladi. Avval o'quvchi voqealarni tushunadi, keyin matndagi asosiy g'oyani sezadi, undan so'ng qahramonlarning xarakterlarini solishtira oladi, matndagi badiiy tasvirlar orqali muallif bermoqchi bo'lgan kayfiyatni anglaydi. Masalan, matnda yomg'irli kun tasvirlansa, bu voqeaga qanday ohang beradi, qahramonning kayfiyatiga qanday ta'sir qiladi o'quvchi shu kabi badiiy belgilarni ham tushunib boradi.

PIRLS asosida badiiy matn tahlili jarayonida o'qituvchi o'quvchini faqat matnni qayta hikoya qilishga emas, balki matn ustida mustaqil fikrlashga undashi lozim. Masalan, matndan parcha o'qib, o'quvchiga "Bu joyda qahramon nima his qilgan deb o'ylaysan?", "Agar sen shu vaziyatda bo'lganingda nima qilarding?", "**Muallif nega aynan shu detallarni tanlagan deb o'ylaysan?**" kabi savollar berish o'quvchining fikrini jonlantiradi. Bu usullar matnni tushunishning chuqurlashishiga olib keladi.

Amaliy jihatdan o'quvchilarga matnni sahnalashtirib berish juda samarali natija beradi. Masalan, kichik hikoyalardagi qahramonlar o'rtasidagi suhbatni o'quvchilar rollarga bo'linib ijro etsa, ular nafaqat matn mazmunini anglaydi, balki qahramonlarning ovozi, ohangi, hissiyotini tasavvur qilib ijodiy yondashishni o'rganadi. Bu jarayon o'quvchilarning matnga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Shuningdek, badiiy matndagi tasvirlarni chizish yoki rasm orqali ifodalash ham matnni tushunishni kuchaytiradi. O'quvchilardan matndagi joy tasvirini, qahramonning ko'rinishini yoki voqea sodir bo'lgan makonni chizib berish so'ralganda, ular matnga qayta murojaat qiladi, **detallarni** o'qiydi, taqqoslaydi, tasavvur qiladi. Bu esa PIRLS da muhim bo'lgan matndan ma'lumot ajratish va qayta ishlash ko'nikmasini mustahkamlaydi.

Badiiy matnni tahlil qilishda muhim bosqichlardan yana biri matndagi badiiy tasvir vositalarini tabiiy tarzda anglashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga "metafora", "epitet" kabi terminlarni o'rgatishdan ko'ra, ularni amaliy tarzda sezdirish

ta'sirchanroq bo'ladi. Masalan, "Quyosh kulimsirab chiqdi" jumlasida o'quvchiga quyoshning qanday tasvirlanganini so'rash, buning voqeadagi kayfiyatni qanday o'zgartirganini muhokama qilish o'quvchining badiiy tafakkurini rivojlantiradi.

PIRLS asosida badiiy matn tahlili jarayonida o'quvchilarga ijodiy davom ettirish topshiriqlari berish ham samarali natija beradi. Masalan, matndagi voqeani boshqa yakun bilan tugatish, qahramon nomidan kichik xat yozish, yoinki voqeani qahramonning ko'zlari bilan qayta hikoya qilish o'quvchilarning badiiy idroki va matndan foydalanish kompetensiyalarini faollashtiradi.

Shuningdek, matn bo'yicha kichik bahs-munozaralar tashkil etish ham o'quvchilarning tahliliy fikrlashini o'stiradi. O'quvchilar bir mavzuda ikki xil fikrni himoya qiladi. Masalan, "Qahramonning qilgan ishi to'g'rimi yoki noto'g'rimi?", "Bosh qahramon haq bo'lganmi?" yoki "Qaysi qahramonning xatti-harakatlari senga ko'proq yoqdi?" kabi savollar ularni matnni chuqurroq o'rganishga undaydi.

Amaliy yondashuv sifatida badiiy matnni qismlarga bo'lib o'qish va har bir bo'lakni alohida analiz qilish ham samarali hisoblanadi. O'quvchi matnning birinchi qismida qanday muammo borligini, keyingi qismida nimalar o'zgarishini, oxirida muammo qanday yechinganini kuzatib boradi. Bu jarayonda o'quvchi matnning tuzilishini sezadi, voqealar orasidagi sabab-oqibat aloqalarini tushunadi.

Shuningdek, matndagi qahramon xarakterini "hissiy xarita" orqali tahlil qilish ham o'quvchiga juda yoqadi. O'quvchilarga qahramonning matn davomida kayfiyati qanday o'zgarganini tasvirlash topshiriladi. Masalan, voqea boshida u hayajonlangan bo'lishi mumkin, keyin qo'rqadi, keyin jasorat ko'rsatadi. O'quvchi matndan dalillar topib, bu o'zgarishlarni asoslab beradi.

Yana bir amaliy usul matndagi muhitni yoki kayfiyatni musiqaga bog'lash. O'qituvchi biror qisqagina musiqani qo'yib, o'quvchilardan "Qaysi voqea uchun eng mos musiqa shu bo'ladi?" deb so'rashi mumkin. Bu usul estetik sezgirlikni kuchaytiradi.

Badiiy matn tahlili jarayonida o'qituvchi har doim o'quvchini mustaqil fikrlashga chorlaydi. O'quvchi matnda yozilganlardan tashqari ham muhokama yuritadi, hayotiy tajribasi bilan bog'laydi, voqealar ortidagi umumiy g'oyani tushunishga intiladi. PIRLS dasturi ham aynan shu o'quvchining chuqur, ongli, mustaqil o'qish kompetensiyasini baholaydi (qarang 1-jadval).

(1-jadval)

Badiiy adarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Asosiy yoʻnalish	Amaliy mazmuni (boshlangʻich sinf – 4-sinf uchun keng va tizimli yoritma)
Matn mazmunini anglash	Oʻquvchining matnni sathma-sath tushinishi taʼminlanadi. Oʻqituvchi oʻquvchini matndagi asosiy voqealarni eslab qolishga emas, voqealar oʻrtasidagi bogʻlanishlarni tushunishga yoʻnaltiradi. Oʻquvchilardan matndan dalil topish, qahramonning nima sababdan shunday harakat qilganini izohlash, voqea ketma-ketligini matnga tayanib aytib berish talab etiladi. Oʻquvchi oʻqigan matnni hayotiy vaziyatlar bilan bogʻlaydi va mazmunni ongli qabul qiladi.
Asosiy gʻoya va mazmuniy qatlamni anglash	Badiiy matndagi asosiy fikr, maqsad va gʻoyani sezish koʻnikmalari rivojlantiriladi. Oʻqituvchi oʻquvchidan matn “nimani aytmoqchi?”, “muallif qanday xulosaga yetaklamoqchi?”, “bu voqeaning maʼnosi nimada?” kabi savollarga oʻz pozitsiyasini bildirib, dalil bilan javob berishini kutadi. Oʻquvchilar matnning ochiq mazmunidan tashqarida yashirin maʼnolarni topishga oʻrgatiladi.
Qahramon xarakterini tahlil qilish	Oʻquvchi qahramonning ichki olamini, hissiyotlarini, xarakter oʻzgarishlarini matndan kelib chiqib tahlil qiladi. Boshlangʻich sinf darajasida bu his-tuygʻularni tasvirlash, qahramonning kayfiyatini aniqlash, uning harakatini baholash orqali amalga oshiriladi. Oʻquvchilarga “agar sen shu oʻrinda boʻlsang nima qilarding?”, “qahramonning qaysi xatti oʻzingga yoqdi yoki yoqmadi?” kabi savollar berilib, mustaqil baholash koʻnikmalari shakllantiriladi.
Badiiy tasvir vositalarini sezish	Oʻquvchilar badiiy tilni terminlarsiz, tabiiy usulda his qilishadi. Matndagi tasviriy ifodalar – quyoshning “kulimsirashi”, shamolning “shivir-shiviri”, osmonning “gʻamginligi” kabi obrazlar oʻquvchiga kayfiyatni ifodalash vositasi sifatida tushuntiriladi. Oʻquvchi badiiy ifodalarning matnga ohang va hissiy tus berishini sezadi.
Ijodiy tasavvur va tahliliy fikrlashni rivojlantirish	Badiiy matn boʻyicha kichik sahnalar, dramatisatsiya, qahramonlar oʻrtasidagi suhbatni jonlantirish orqali oʻquvchining oʻqiganini his qilish qobiliyati kuchayadi. Oʻquvchilar voqealarni boshqa yakun bilan tugatish, qahramon nomidan kichik matn yozish, voqeani boshqa burchakdan hikoya qilish kabi mashqlar orqali matnni ijodiy qayta ishlaydi.

Asosiy yoʻnalish	Amaliy mazmuni (boshlangʻich sinf – 4-sinf uchun keng va tizimli yoritma)
	Bu PIRLS talablaridagi “matndan ijodiy foydalanish” koʻnikmasini shakllantiradi.
Matn asosida xulosa chiqarish	Oʻquvchiga matndagi muammoni topish, voqealar rivojidan qanday xulosa chiqarish mumkinligini belgilash, qahramonlar xatti-harakatidan oʻrnak olish kabi vazifalar beriladi. Oʻqituvchi oʻquvchilarning mustaqil fikrini rivojlantirish uchun ulardan matnning asosiy xulosasini oddiy, oʻz soʻzlari bilan izohlashni soʻraydi.
Kayfiyat va muhitni idrok qilish	Oʻquvchilar matndagi kayfiyatni rang, tasvir, rasm yoki musiqaga bogʻlab tushuntiradilar. Masalan, quvonchli vaziyatga yorqin ranglar, qaygʻuli epizodga sokin musiqa mos kelishini izohlash orqali ularda badiiy idrok kuchayadi. Bu usul matnni chuqurroq his etish imkonini beradi.
Matnni qismlarga boʻlib tahlil qilish	Voqealar ketma-ketligini tushunishga yordam beruvchi usul sifatida matnni boʻlakma-boʻlak oʻqish qoʻllaniladi. Har boʻlakda nima oʻzgarayotgani, qahramonning kayfiyati qanday, voqea qaysi yoʻnalishda ketayotgani muhokama qilinadi. Bu oʻquvchiga sabab–oqibat aloqasini anglashni oʻrgatadi.
Dalil keltirish koʻnikmasi	Oʻquvchi aytgan fikrini matndan keltirilgan dalil bilan asoslaydi. Bu PIRLS standartlaridagi eng muhim talabdir. Oʻquvchi har bir fikridan soʻng “matnda qayerda shunday deyilgan?”, “qaysi soʻzlar senga buni anglatdi?” degan savollarga javob bera olishi kerak.
Rasm chizish orqali tahlil	Matndagi joyni, qahramonni, voqeani chizish orqali oʻquvchi matnga qayta murojaat qiladi. Bu jarayon diqqatni kuchaytiradi va matnga estetik yondashuvni shakllantiradi. Rasm asosida qayta hikoya qilish mashqlari matnni mustahkam oʻzlashtirishga yordam beradi.
Bahs va fikr almashish	Oʻquvchilar matn asosida kichik guruhlarda fikr almashadi. “Qaysi qahramonni yoqtirding?”, “Uning xatti-harakati qanchalik toʻgʻri?”, “Vaqeaga boshqacha qarash mumkinmi?” kabi savollar oʻquvchini mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Asosiy yo'nalish	Amaliy mazmuni (boshlang'ich sinf – 4-sinf uchun keng va tizimli yoritma)
Hayotiy bog'lanishlar o'rnatish	O'quvchi matndagi voqealarni o'z hayoti bilan solishtiradi. Masalan, “senga shunga o'xshagan holat bo'lganmi?”, “qaysi joy seni eslating?” kabi savollar matnning hayotiy ahamiyatini oshiradi. PIRLS aynan shu bog'lanishlar orqali o'qish savodxonligi darajasini tekshiradi.
Til va nutqni rivojlantirish	Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchining og'zaki nutqi va lug'at boyligi oshadi. O'quvchilar matndan o'rgangan yangi so'zlarni kontekstda ishlatadi, o'z fikrini aniq bayon qiladi, matn asosida maqbul, ravon nutq shakllantiradi.
PIRLS talablari bilan uyg'unlik	Barcha amaliy metodlar PIRLSning asosiy yo'nalishlari matnni tushunish, matndan dalil keltirish, badiiy qatlamni his qilish, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Ushbu yondashuvlar 4-sinf o'quvchilarini ongli, mustaqil va mazmunli o'qishga tayyorlaydi.

XULOSA

PIRLS xalqaro baholash dasturi boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga yangi sifat bosqichi bilan yondashish imkonini beradi. 4-sinf o'quvchilari uchun badiiy matnni tushunish, tahlil qilish, qahramonlarning xarakterini anglash, matn mazmunidan xulosa chiqarish va o'z hayoti bilan bog'lash kabi ko'nikmalarni shakllantirish mazkur dastur talablariga to'liq mos keladi. Badiiy matn ustida tizimli ishlash o'quvchining nafaqat o'qish tezligini, balki fikrlash doirasini, tasavvurini, mantiqiy bog'lanishlarni ko'ra olish qobiliyatini ham kengaytiradi.

PIRLS mezonlari asosida tashkil etilgan matn tahlili jarayoni o'quvchining matnga chuqur kirib borish, matnda yashiringan ma'nolarni anglash, voqealar orasidagi sabab-oqibat munosabatlarini ko'ra olish va matndan dalil keltirib fikr bildirish kabi muhim kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, badiiy tasvir vositalarini sezish, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini his qilish, voqealarni tasavvur qilish va matnni ijodiy qayta ishlash o'quvchining estetik idroki va ijodiy tafakkurining o'sishiga xizmat qiladi.

Amaliy mashqlar, guruhli ishlash, rolga kirish, dramatizatsiya, rasm chizish orqali tahlil qilish, savol-javob usullari, matnni hayotiy tajriba bilan bog'lash kabi metodlar yosh o'quvchilar uchun eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Bunday faol yondashuvlar o'quvchiga matnni nafaqat o'qish, balki uni his qilish, anglash va baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'rayev, R., Qosimova, M. Boshlang'ich sinf o'qish darslari metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2021.
2. Meliqo'zieva, R. Boshlang'ich ta'limda badiiy matn bilan ishlash metodlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
3. Karimova, D., Xoliqova, S. O'qish savodxonligi va PIRLS talablari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
4. Qodirova, G., Salayeva, Z. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar kompetensiyasini rivojlantirish. – Toshkent: Innovatsion nashr, 2023.
5. Xoliyorov, A. Badiiy matn tahlili asoslari. – Toshkent: Ma'rifat, 2019.